

## TALABALARNI ZILZILA VAQTIDA TO‘G‘RI HARAKAT QILISHGA O‘RGATISH

*Favqulodda vaziyatlar vazirligi Fuqaro muhofazasi instituti  
o‘qituvchilari*

**O.Rajabov**

**U.Payzullaev**

Hozirgi kunda oliy o‘quv yurtlarimizda Fuqaro muhofazasi bo‘yicha mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish, darsni qiziqarli olib borish, har bir bilim oluvchining dars davomida faol ishtirokini amalga oshirish maqsadida turli pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan unumli foydalanib kelinmoqda.

Shunday pedagogik texnologiyalardan biri, guruhlar bilan ishlash texnologiyasi bo‘lib, bunda ishslash jarayonini 4 ta bosqichga ajratiladi va quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

1. Tayyorgarlik bosqichida asosan quyidagilarga aniqlik kiritadi:

-avvalo guruhlar bilan ishlash texnologiyasi nima uchun tanlanganligi, uni qanday amalga oshirish lozimligi, amalga oshirish uchun bilim oluvchilar qanday darajada tayyorgarlikka ega bo‘lishlari lozimligi aniqlanadi;

-o‘z oldiga mashg‘ulot maqsadini qo‘yadi va ko‘zlangan natijalarini rejalashtiradi;

-o‘quv mashg‘ulotida foydalaniladigan model tanlanadi. Eng yaxshi model bu- o‘quv guruhi vazifa sharti bilan tanishtirish, o‘yinni kichik guruhlarda individual, so‘ngra birgalikda tashkil etish hamda guruh natijalarini prezentatsiya qilish va birgalikda hulosan qilishdan iborat;

-guruhlarning ish joylarini tanlash va tayyorlash. Guruhlar bir-biriga halal bermasliklari uchun alohida-alohida (guruh-guruh qilib) joylashtiriladi;

-topshiriqni tanlash va uni aniq ifoda qilish. Buning uchun mashg‘ulot maqsadiga, bilim olayotganlarning bilim darajasiga mos keluvchi bir xilda yoki differensiallangan (turli) topshiriqlar ishlab chiqiladi;

-o‘quv tarqatma materiali va yo‘riqnomalarni tayyorlash.

-guruh a’zolarini birgalikda faol ishlashga tayyorlash. Buning uchun guruhlarga bo‘layotganda bir - biriga xayrihoh bo‘lgan talabalar tanlab olinsa, ularning birgalikda samarali va ijodiy ishslashlari ta’minlanadi.

Har bir guruh a’zosi guruh bilan ishlash qoidalarini bilishlari va ularga amal qilishlari lozim. Shu o‘rinda guruh bilan ishlash qoidalarini eslatib o‘tamiz. Har bir talaba o‘rtoqlarini tinglashi, ularning fikriga xayrihohlik bilan xushmuomola bo‘lishi zarur. Guruhning har bir a’zosi topshirilgan vazifaga javobgarlik ruxida, faol ishtirok etishi lozim. Har bir a’zo bir biridan kerak bo‘lganda yordam so‘rashi, yonidagilarga yordam berishi, prezentatsiya materiali tayyorlanayotganda ishtirok etishi zarur.

-guruhlarga bo‘lish usullari tanlanadi. Talabalarning o‘zlari o‘z ixtiyorlari bilan kichik guruhlarga bo‘linishlari mumkin.

-guruh talabalari tomonidan topshiriqni inobatga olgan holda, bajariladigan vazifalar bo‘yicha roller taqsimlanishi ham mumkin.

2. Topshiriqlarini bajarishga kirishish jarayonida o‘qituvchi guruhlarga topshiriqni bajarishda qo‘yilayotgan muammoni yechish usullari va bosqichlarini, ish tamomlanganda kutilayotgan natijalarni tushuntiradi. Har bir ishtirokchining va guruh ishini baholash mezonlari bilan tanishtiradi. Talabalarni guruhlarga bo‘ladi va ularga kerakli materiallarni tarqatib chiqadi. Guruh vazifasini bajarish bo‘yicha yo‘riqnomani doskaga yozib qo‘yishi yoki yozma ko‘rinishda tarqatilishi mumkin. Yo‘riqnomadagi shartlarni tushuntirib beradi va barcha uni tushunganligiga iqror bo‘lishi lozim.

3. Keyingi bosqichda talabalar topshiriqni bajarishga kirishadilar. O‘qituvchi kuzatuvchi sifatida qatnashadi. Bunda u guruhlarni vazifani qanday bajarayotganlarini nazorat qiladi, lekin ularga boshchilik qilmaydi. U talabalarni vazifani bajarishdagi individual ishlariga, uddalay olayotganliklariga e’tiborini qaratadi. Talabalar topshiriqni tugatishlari bilan o‘qituvchini ogohlantirishlari lozimligini eslatib o‘tadi. Talabalar guruh a’zolariga vazifalarni taqsimlaydilar. Topshirilgan vazifalar bo‘yicha har birlari individual ishlaydilar. Olingan natijalarni esa birgalikda muhokama qiladilar. Guruh ishining umumiyligi natijasini kelishib yoritadilar va prezentatsiyaga tayyorlaydilar.

Prezentatsiyani kim qilishini oldindan ta’yinlab qo‘yish, qolgan guruh a’zolarini topshiriqqa loqayd munosabatda bo‘lishlariga olib kelishi mumkin. Shu sababli prezentatsiya qiluvchini guruhnini o‘zi tanlab oladi.

4. Taxlil qilish, baholash va yakunlash bosqichida o‘qituvchi topshiriq natijalarini e’lon qiluvchi guruhnini tanlaydi va baholash mezonlarini eslatib o‘tadi.

Natijalarni tekshirib chiqadi. Bunda o‘qituvchiga oldindan tayyorlangan tekshiruvchi yordam berishi mumkin. Yoki har bir guruh boshqa guruhga o‘zoro tekshirishni amalga oshirish uchun savollar berishi mumkin. Guruh ishi taxlil qilinadi, ko‘zlangan maqsadga erishish bo‘yicha xulosa qilinadi va guruhlar baholanadi. Mashg‘ulotga yakun yasaladi.

Guruhrular bilan ishslash texnologiyasini oliy o‘quv yurtlarida dastur bo‘yicha belgilangan “Tabiiy ofatlar natijasida keladigan talofatlar darajasini aniqlash” bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar olib borishda tadbiq etishni tavsiya etamiz. Buning uchun talabalar 8 kishidan iborot ikki guruhga bo‘linadi. Guruhrular alohida stollarga o‘tqaziladi. Har bir guruh tinglovchilarini 2 kishidan iborat 4ta kichik guruhlarga bo‘linadi hamda ularga o‘yin shartlari tarqatiladi. Birinchi guruhga “zilzila” mavzusi topshirilib, kichik guruhlarga quyidagi o‘yin sharti matnlari tarqatiladi:

- 1.1. Zilzila va uning keltiradigan talofatlari. (Misollar yordamida ochib bering).
- 1.2. Zilzila talofatlarini kamaytirish tadbirlari.
- 1.3. Zilzila keltiradigan talofatlarni bartaraf etish tadbirlari.
- 1.4. Zilzila vaqtida aholining harakati.

Ikkinci guruhga esa “suv toshqini” mavzusi topshirilib, kichik guruhlarga o‘yin sharti yozilgan kartochkalar tarqatib chiqiladi.

Vazifa topshirilgandan so‘ng, topshiriqni bajarish sharti aks ettirilgan quyidagi yo‘riqnomasi bilan tanishtiriladi:

“Birinchi kichik guruh tinglovchilari Favqulodda vaziyat (FV) turiga ta’rif berishlari, uning keltiradigan talofatlarini qisqa, lo’nda bayon qilishlari, misollar keltirishlari zarur. 2- va 3- kichik guruh a’zolari korxona miqyosida olib boriladigan tadbirlarni aniq ohib berishlari, 4-kichik guruh esa FV lar vaqtidagi aholining to‘g’ri harakatlanish qoidalarini tushuntirib berishlari talab qilinadi. Topshiriq bajarilishi uchun 10 daqiqa vaqt ajratiladi. Guruh a’zolari tayyorlagan javoblar bilan tanishib chiqadilar va muhokama o’tkazib, prezentatsiyaga tayyorlanishlari uchun 5 daqiqa vaqt ajratiladi. Guruh a’zolarining taklifiga ko‘ra bir tinglovchi tomonidan 7 daqiqa ichida guruh prezentatsiyasi amalga oshiriladi. 3 daqiqa ichida berilgan javoblar taxlil qilinadi. Javoblar boshqa guruh a’zolari tomonidan to‘ldirilishi ham mumkin. Guruh javoblari 5 balli tizimda baholanadi.”

Kutilayotgan javoblar (javoblar misol tariqasida keltirilmoqda, o‘qituvchilar yana to‘ldirishlari mumkin):

1.1. Zilzila va uning keltiradigan talofatlari. (Misollar yordamida ohib bering).

Zilzila- bu yerning ichki harakatlari natijasida uning yuzasida paydo bo‘ladigan tebranish natijasida sodir bo‘ladigan yer silkinishlaridir.

Kuchli zilzilalar ko‘pincha turar joylarning buzilishiga, odamlarning uyumlar orasida qolib ketishlari tufayli jabrlanishlari va qurbon bo‘lishlariga olib keladi. Bu zilzilalarning birlamchi oqibatlari hisoblanadi. Ikkilamchi oqibatlari yong‘inlar va portlashlar, zaharli gazlarning atrof muxitga tarqalishi, kommunikatsiya tizimlaridagi turli texnogen avariyalarni keltirib chiqarishi mumkin. Misol tariqasida Yaponiyadagi zilzila o‘zidan keyin sunami hamda AESdagi avariyanı keltirib chiqardi.

Yer yuzida sodir bo‘lgan zilzilalarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ko‘plab kishilarni qurbon bo‘lishi, jabrlanish holatlari sodir bo‘lganining guvoxi bo‘lamiz. Masalan, 2010 yildagi Gaiti zilzilasi natijasida 200 ming nafar kishi qurbon bo‘lgan, 311 kishi jaroxatlangan, 2008 yildagi Xitoyning Sichuan zilzilasida esa 70 ming kishi o‘lgan, 300 ming kishi jaroxatlangan.

1.2. Zilzilalarni keltiradigan talofatlarini kamaytirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiqli:

-birinchidan aholini zilzila vaqtida o‘zini muhofaza qilish usullariga, to‘g’ri harakatlanishga o‘rgatish;

-korxona imoratlarining zilzilabardoshligini kamayishiga yo‘l qo‘ymaslik, zilzilabardoshligi kamaygan imoratlarning mustaxkamligini oshirish chora-tadbirlarini kuchaytirish;

-korxonalarda esa turli FV lar, jumladan, zilzilalar yuz berganda bajariladigan harakatlarni rejalshtirish va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish.

-korxonalarda aloqa va habar berish tizimini ish xolatida saqlash;

-evakuatsiya rejalarini ishlab chiqish;

-korxonalarni barqaror ishlashini ta’minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish;

1.3. Zilzila keltiradigan talofatlarni bartaraft etish tadbirlari.

- ishchi xodimlarni zilzila to‘g’risida ogohlantirish;

-ishchi-xodimlarni imoratdan tashqariga evakuatsiya qilish;

-zilzila keltirgan talofatlarini zdulik bilan o‘rganib chiqish;

-korxonada ishlab chiqilgan FV larning oldini olish va bartaraf etish harakatlari rejasiga aniqlik kiritish va unda rejalashtirilgan tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlash;

-FM tuzilmalarini shay holatga keltirish;

-jabrlanganlarni xavfsiz xududga olib chiqish va birinchi yordam ko'rsatishni tashkillashtirish;

-yuz bergen yong'inlarni bartaraf etish tadbirlarini tashkillashtirish;

-jabrlanganlarni tibbiy muassasalarga yuborishni tashkillashtirish;

-korxonadagi qo'riqlash ishlarini, dispatcherlar ishini kuchaytirish;

-zilzila keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ikkilamchi oqibatlarning oldini olish tadbirlarini amalga oshirish.

#### 1.4. Zilzila vaqtida aholining harakati.

- ko'p qavatli uyning birinchi qavatida yoki pishiq g'ishtli, paxsali uydagilarning yer qimirlay boshlaganda zudlik bilan binodan tashqariga chiqishlari;

-yuqori qavatlardagilarning vahimaga tushmasdan, tashqariga chiqishga harakat qilmasliklari;

-liftdan foydalanmaslik, zinapoyalarning mustahkamligiga ishonch hosil qilgandan so'ng ulardan foydalanish;

-ko'chaga chiqqandan so'ng elektr tarmog'i, gaz trubalari va baland imoratlardan uzoqroqda, ochiq joyda turishga harakat qilish;

-yuqori qavatdagilarning xonaning ichki burchaklari, ichki devorlar yoni, eshiklar oralig'i kabi xavfsiz joylarni egallahslari;

-ko'chadagilarning osilgan balkonlardan, karniz, uzilgan simlardan uzoqroqda turishlari;

- magazin, kinoteatr, vokzal kabi odamlar ko'p yig'iladigan joydagilarning osilib turgan lyustra, ventilator, reklama taxtachalaridan uzoqroq turishlari;

-avtomobil ichidagilarning mashinani to'xtatib undan tushmasliklari, jabrlanganlarga yordam berishga tayyor turishlari lozim.

Kichik guruuhlar javoblarini tayyorlab bo'lganlaridan so'ng, bir birlari tayyorlagan materiallar bilan tanishadilar, guruuh prezentatsiyasiga tayyorlanadilar va prezentatsiya qiluvchi talabani guruuh a'zolari tanlaydilar. Guruhlarning javoblari tinglanadi. Javoblar boshqa guruuh a'zolari tomonidan to'ldirishlariga ruxsat beriladi. O'qituvchi tomonidan yutuq va kamchiliklar ochib beriladi, baholanadi hamda g'olib guruuh e'lon qilinadi. O'qituvchi dars yakunida ko'zlangan maqsadga erishilganligi to'g'risida xulosa qiladi.

O'ylaymizki, shunday usullardan foydalanish talabalarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirishda yaxshi samara beradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 iyuldagи - O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududlarining seysmik xavfsizligini ta‘minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-4794-sonli Qarori,
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 sentabrdagi -Aholini Favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risidagi 754-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 avgustdagи -Aholining favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorgarligini oshirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi 650-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 oktabrdagi -Texnogen, tabiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to‘g‘risidagi 455 – sonli qarori.
5. <http://www.fvv.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi sayti).